UDK:

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MULOQOT QIYINCHILIKLARI: SABABLARI, NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI VA PEDAGOGIK TA'SIR YO'LLARI

Abdujabborova Olimaxonim Rustambek qizi
Namangan davlat pedagogika insituti 2-bosqich magistranti
olimaabdujabborova@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3084-9738

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf (1-sinf) o'quvchilarida muloqot qiyinchiliklarining psixologik-pedagogik asoslari, ularning kelib chiqish sabablari va namoyon bo'lish shakllari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi muloqot qiyinchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik asoslarni taqdim etish. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-solishtirma tahlil, pedagogik kuzatuv va so'rovnoma metodlariga tayanildi. Natijalar muloqot qiyinchiliklarini to'rt guruhga: nutqiy-lingvistik, hissiy-irodaviy, ijtimoiy-kommunikativ va motivatsion-shaxsiy qiyinchiliklarga ajratish mumkinligini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, bunday qiyinchiliklar o'quvchining o'zlashtirishiga, sinfdagi ijtimoiy moslashuviga va hissiy farovonligiga bevosita ta'sir qiladi. Xulosa qismida o'qituvchi, ota-ona va maktab psixologi hamkorligiga asoslangan, o'yin hamda hamkorlikdagi o'quv faoliyatini qamrab oluvchi korreksion-rivojlantiruvchi model taklif etiladi. Maqola boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, maktab psixologlari va metodistlar uchun mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *muloqot, muloqot qiyinchiliklari, boshlang'ich sinf o'quvchilari, kommunikativ kompetensiya, nutq rivoji, tengdoshlar bilan munosabat, ijtimoiylashuv, uyatchanlik, korreksion-pedagogik ish, hamkorlikda o'qitish.*

ТРУДНОСТИ ОБЩЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ: ПРИЧИНЫ, ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация: *В статье рассматриваются психолого-педагогическая природа, причины возникновения и формы проявления трудностей общения у младших школьников (7–10 лет). Цель исследования – систематизировать трудности общения и обосновать педагогический подход к их преодолению. В работе использованы теоретический и сравнительный анализ, педагогическое наблюдение и анкетирование.*

Результаты показали, что трудности общения можно разделить на четыре группы: речевые, эмоционально-волевые, социально-коммуникативные и мотивационно-личностные. Установлено, что такие трудности напрямую влияют на успеваемость ребёнка, его положение в классе и эмоциональное благополучие. В заключение предложена коррекционно-развивающая модель, основанная на сотрудничестве учителя, родителей и школьного психолога и включающая игровую и совместную учебную деятельность. Статья адресована учителям начальных классов, школьным психологам и методистам.

Ключевые слова: *общение, трудности общения, младшие школьники, коммуникативная компетентность, развитие речи, отношения со сверстниками, социализация, застенчивость, коррекционно-педагогическая работа, обучение в сотрудничестве.*

COMMUNICATION DIFFICULTIES IN PRIMARY SCHOOL PUPILS: CAUSES, MANIFESTATIONS AND PEDAGOGICAL APPROACHES

Annotation: *The article examines the psychological and pedagogical nature, causes and forms of communication difficulties among primary school pupils aged 7–10. The aim of the study is to systematise these difficulties and to substantiate a pedagogical approach to overcoming them. The research relies on theoretical and comparative analysis, pedagogical observation and a questionnaire survey. The results show that communication difficulties can be divided into four groups: speech-linguistic, emotional-volitional, social-communicative and motivational-personal. It is established that such difficulties directly affect a child's academic progress, social standing in the class and emotional well-being. In conclusion, a correctional-developmental model is proposed, based on cooperation between the teacher, parents and the school psychologist and incorporating play-based and collaborative learning activities. The article is intended for primary school teachers, school psychologists and methodologists.*

Keywords: *communication, communication difficulties, primary school pupils, communicative competence, speech development, peer relationships, socialisation, shyness, correctional-pedagogical work, cooperative learning.*

KIRISH

Muloqot jarayoni o'quvchi shaxsining shakllanishida, uning bilim olishi va jamiyatga qo'shilishida asosiy vosita hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim siyosati o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishni ham muhim vazifa sifatida belgilaydi [1]. Boshlang'ich sinf o'quvchisining yoshi esa bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Bola

maktabga kelishi bilan birdaniga o'quv faoliyat jarayoniga kirib keladi, muloqot doirasiga faqatgina oila va bog'cha emas, o'qituvchi hamda sinfdoshlari qoshiladi. [2]. L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, tafakkur va nutq o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bolaning aqliy rivoji ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi [3]. M.I.Lisina esa muloqotni bola rivojlanishining mustaqil omili sifatida talqin qilib, uning yosh bosqichlariga qarab o'zgarishini ko'rsatib bergan [4].

Shunga qaramay, amaliyotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqotdagi qiyinchiliklari ko'pincha e'tibordan chetda qoladi yoki noto'g'ri talqin qilinadi. Uyatchan bola "o'zlashtirishi past", impulsiv yoki nizoli bola esa "tarbiyasi yomon" deb baholanadi, vaholanki bunday holatlar ortida nutq rivojidagi kamchiliklar, hissiy beqarorlik, ijtimoiy ko'nikmalarning yetarli shakllanmaganligi yoki o'z-o'zini past baholash yotishi mumkin. Mavjud tadqiqotlarda muloqot qiyinchiliklari asosan alohida jihatlar (nutq nuqsonlari, uyatchanlik, tajovuzkorlik) doirasida o'rganilgan; ularning yagona tizimda ko'rib chiqilishi, sabab-oqibat bog'liqligi va maktab sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan integrativ pedagogik yondashuv yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot qiyinchiliklarining turlari, sabablari va namoyon bo'lish shakllarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni asoslashdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

1. muloqot va kommunikativ kompetensiya tushunchalarining ilmiy talqinini tahlil qilish;
2. boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot qiyinchiliklarining asosiy guruhlarini ajratish;
3. qiyinchiliklarning o'quv faoliyati va ijtimoiy moslashuvga ta'sirini aniqlash;
4. qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir yo'nalishlarini belgilash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili

Muloqot qiyinchiliklari muammosi turli yondashuvlar kesimida o'rganilgan. J.Piaje bolalar nutqining egosentrik xususiyatlarini tahlil qilib, kichik yoshdagi bolalarning suhbatdoshning nuqtai nazarini hisobga olishda qiyinchilik sezishini ko'rsatgan [5]. D.Haymz kommunikativ kompetensiya tushunchasini fanga kiritib, til qoidalarini bilishning o'zi yetarli emasligini, nutqni vaziyat, suhbatdosh va maqsadga mos ishlata olish ham zarurligini asoslagan [6]. B.Spitsberg va U.Kyupach esa kommunikativ kompetensiyani bilim, motivatsiya va ko'nikmalar uyg'unligi sifatida ta'riflagan [7].

Rus psixologiyasida A.A.Bodalev muloqotni shaxsning shakllanishi va inson idroki bilan bog'liq holda o'rgangan [8]. A.Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida bola ijtimoiy xulq-atvorni kattalar va tengdoshlarni kuzatish orqali o'zlashtirishini ta'kidlagan, bu esa sinf muhiti va o'qituvchi namunasining ahamiyatini oshiradi [9]. K.Rubin va hammualliflar tengdoshlar bilan o'zaro ta'sir, do'stlik va guruhdagi mavqe bolaning ijtimoiy-hissiy rivojiga sezilarli ta'sir qilishini ko'rsatgan [10]. D.Bishop tilni tushunish bilan bog'liq qiyinchiliklar bolaning muloqotdagi muvaffaqiyatsizligiga sabab bo'lishi mumkinligini asoslagan [11]. F.Greshem va S.Elliott tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy ko'nikmalarni baholash tizimi bolaning hamkorlik, o'zini nazorat qilish, tashabbus kabi ko'nikmalarini ajratib o'rganish imkonini beradi [12].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud ishlarda nutq, hissiyot va ijtimoiy o'zaro ta'sir omillari ko'pincha alohida ko'rib chiqiladi. Mazkur maqolada ularni yagona tizimda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kundalik amaliyotiga yaqin tarzda umumlashtirishga harakat qilindi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

nazariy tahlil va umumlashtirish – psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, tushunchalarni aniqlashtirish;

qiyosiy-solishtirma tahlil – turli ilmiy maktablarning yondashuvlarini taqqoslash;

pedagogik kuzatuv – dars va tanaffus jarayonida o'quvchilarning muloqot va xulq-atvorini qayd etish;

so'rovnoma va suhbat – o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnoma;

ma'lumotlarni tizimlashtirish – olingan ma'lumotlarni guruhlash va sifat jihatdan talqin qilish.

Empirik qism 2 **ta boshlang'ich sinf (34**-maktab, 1-"a" **va 1-"b"**-sinflar) o'quvchilari, 4 **nafar o'qituvchi va 30** nafar ota-ona ishtirokida o'tkazildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muloqot qiyinchiliklarining tipologiyasi

Nazariy tahlil va pedagogik kuzatuv natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot qiyinchiliklarini to'rt asosiy guruhga ajratish mumkinligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot qiyinchiliklarining asosiy guruhlari

Guruh	Asosiy belgilari	Sinfda namoyon bo'lishi
Nutqiy-lingvistik	Lug'at boyligining cheklanganligi, fikrni izchil bayon eta olmaslik, talaffuz kamchiliklari, savolni to'liq anglamaslik	Javob berishda to'xtab qolish, qisqa va bir bo'g'inli javoblar, topshiriqni qayta so'rash
Hissiy-irodaviy	Uyatchanlik, xavotir, impulsivlik, hissiyotni nazorat qila olmaslik	Doskaga chiqishdan qochish, ovozning past chiqishi; navbat kuta olmaslik, nizolarga tez kirishish
Ijtimoiy-kommunikativ	Suhbatni boshlash va davom ettirish ko'nikmasining yo'qligi, hamkorlikdagi faoliyatga qiyin kirishish, nutqsiz signallarni (mimika, ohang) noto'g'ri tushunish	Guruh ishida chetda qolish, tengdoshlar tomonidan rad etilish, yolg'iz o'ynash
Shaxsiy-motivatsion	O'z-o'zini past baholash, muloqotga ehtiyojning sustligi, kattalar bahosiga haddan tashqari bog'liqlik	"Bilmayman" deb javob berish, tashabbus ko'rsatmaslik, xato qilishdan qo'rqish

Bu guruhlar o'zaro bog'liq: masalan, nutq rivojidagi kamchilik bolada uyat va xavotirni kuchaytiradi, bu o'z navbatida tengdoshlar bilan munosabatni cheklab, ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli har bir holatni alohida belgi bilan emas, balki sabablar majmui sifatida ko'rib chiqish zarur.

Qiyinchiliklarning o'quv faoliyatiga ta'siri

Kuzatuvlar muloqot qiyinchiliklari o'quvchining o'quv faoliyatiga uch yo'nalishda ta'sir qilishini ko'rsatdi. Misol uchun, bola bilganini og'zaki ifodalay olmagani sababli uning haqiqiy bilimi past baholanadi. Shuningdek, juftlik va guruhdagi ishlarda faol qatnasha olmagani sababli hamkorlikdagi o'rganish imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydi. Takroriy muvaffaqiyatsizliklar esa, o'quv motivatsiyasini pasaytiradi va sinfdagi ijtimoiy mavqeni zaiflashtiradi. Bu xulosalar tengdoshlar munosabatlari

bolaning maktabdagi moslashuvida muhim rol o'ynashi haqidagi ilmiy qarashlarga mos keladi [10].

O'qituvchilar fikricha, sinfdagi o'quvchilarning 63 % muloqotda qiyinchilik sezadi va ijtimoiy-kommunikativ guruh ko'proq uchraydi.

Pedagogik ta'sir yo'nalishlari

Tahlil asosida qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi o'zaro bog'liq yo'nalishlarni o'z ichiga olgan model taklif etiladi:

1. **Tashxis.** O'qituvchi kuzatuvi, ota-ona bilan suhbat va zarur hollarda maktab psixologi yordamida qiyinchilik turini erta aniqlash. Nutq bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjud bo'lsa, logoped maslahati tavsiya etiladi.
2. **Nutqni rivojlantiruvchi mashqlar.** Rasm asosida hikoya tuzish, savol-javob o'yinlari, rolli suhbatlar orqali lug'at va izchil nutqni boyitish.
3. **Hissiy muhit yaratish.** Xatoni jazolamaydigan, har bir javobni qo'llab-quvvatlaydigan sinf muhiti; uyatchan o'quvchilar uchun avval juftlikda, so'ng kichik guruhda, keyin butun sinf oldida javob berish tamoyili.
4. **Hamkorlikdagi o'quv faoliyati.** Juftlik va guruh ishlarida rollarni taqsimlash (hisobchi, so'zlovchi, kuzatuvchi), shu orqali har bir bolaga muloqotga kirishish uchun tabiiy vaziyat yaratish.
5. **Ijtimoiy ko'nikmalar mashg'ulotlari.** Salomlashish, suhbatga qo'shilish, rad javobini bildirish, kechirim so'rash kabi ko'nikmalarni o'yin va sahnalashtirish orqali mashq qilish. A.Bandura g'oyasiga ko'ra, bunda o'qituvchining o'z muloqot namunasi alohida ahamiyatga ega [9].
6. **Oila bilan hamkorlik.** Ota-onalarga bola bilan kundalik suhbat qurish, uni oxirigacha tinglash va xatolarini ommaviy tanqid qilmaslik bo'yicha tavsiyalar berish.

Muhokama

Olingan natijalar kommunikativ kompetensiyani bilim, motivatsiya va ko'nikmalar birligi sifatida ko'rish zarurligini tasdiqlaydi [7]. Boshlang'ich sinfda muloqot qiyinchiligi ko'pincha o'quvchining shaxsiy kamchiligi sifatida emas, balki rivojlanish va muhit omillari o'zaro ta'sirining natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun faqat "ko'proq gapirishga undash" kabi sirtqi choralar yetarli emas; qiyinchilikning sababiga mos ta'sir tanlanishi lozim. Taklif etilayotgan model dars jarayoniga qo'shimcha yuk bo'lmasdan, mavjud o'quv topshiriqlariga (juftlikda o'qish, guruhda masala yechish, hikoya tuzish) singdirilishi mumkinligi bilan amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotning cheklovi sifatida natijalar 1 ta maktab doirasida olinganini hamda modelning samaradorligi kengroq tajriba-sinov asosida tekshirilishi zarurligini qayd etish lozim.

XULOSA

Tadqiqot natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot qiyinchiliklari nutqiy-lingvistik, hissiy-irodaviy, ijtimoiy-kommunikativ va shaxsiy-motivatsion guruhlarga ajratilishi hamda ular o'zaro bog'liq tizim sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Bunday qiyinchiliklar o'quvchining o'zlashtirishiga, tengdoshlar orasidagi o'rniga va o'quv motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shu bois ularni erta aniqlash va sababga mos usul tanlash muhimdir.

Taklif etilgan korreksion-rivojlantiruvchi tashxis modeli, nutqni rivojlantirish, hissiy qo'llab-quvvatlash, hamkorlikdagi o'quv faoliyati, ijtimoiy ko'nikmalar mashg'ulotlari va oila bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi. Amaliyot uchun quyidagilar tavsiya etiladi: o'qituvchilarning muloqot qiyinchiliklarini erta belgilarini taniy olish bo'yicha malakasini oshirish; maktab psixologi va logoped xizmatlaridan samarali foydalanish; dars jarayonida juftlik va guruh ishlarini muntazam qo'llash. Kelgusi tadqiqotlarda modelning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish va turli hudud maktablarida qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. [Law of the Republic of Uzbekistan "On Education"].
2. Elkonin D.B. Detskaya psikhologiya. – M.: Akademiya, 2004. [Child psychology]. – 384 b.
3. Vygotsky L.S. Myshlenie i rech. – M.: Labirint, 1999. [Thinking and speech]. – 352 b.
4. Lisina M.I. Problemy ontogeneza obshcheniya. – M.: Pedagogika, 1986. [Problems of the ontogenesis of communication]. – 144 b.
5. Piaget J. Le langage et la pensée chez l'enfant. – Neuchâtel: Delachaux et Niestlé, 1923. [The language and thought of the child]. – 214 p.
6. Hymes D. On communicative competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – pp. 269–293.
7. Spitzberg B.H., Cupach W.R. Interpersonal Communication Competence. – Beverly Hills: Sage, 1984. – 276 p.
8. Bodalev A.A. Lichnost i obshchenie. – M.: Pedagogika, 1983. [Personality and communication]. – 272 b.
9. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. – 247 p.

10. Rubin K.H., Bukowski W., Parker J.G. Peer interactions, relationships, and groups // Damon W., Eisenberg N. (eds.). Handbook of Child Psychology. Vol. 3. 6th ed. – Hoboken: Wiley, 2006. – pp. 571–645.

11. Bishop D.V.M. Uncommon Understanding: Development and Disorders of Language Comprehension in Children. – Hove: Psychology Press, 1997. – 400 p.

12. Gresham F.M., Elliott S.N. Social Skills Rating System. – Circle Pines: American Guidance Service, 1990.